



Stylistic Forms of the "Wish" Speech Genre

Durdona SAYFUTDINOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

artistic style,
formal style,
journalistic style,
scientific style,
religious style,
colloquial style,
formal and informal words.

ABSTRACT

The speech genre "wish" differs from other speech genres of the language system by the presence of its own speech purpose, compositional structure and style and is manifested in different styles of the language system. The interstylistic speech genre "wish" involves words and sentences related to a certain area, lexical-semantic and grammatical means and syntactic devices. The constitutive features of the stylistic features of the speech genre "wish" have not been studied. The absence of linguistic studies in the available sources devoted to the study of this speech genre indicates that this work is a new study. As in other speech genres, the text of the speech genre "wish" also has stylistic specificity. In the language system, this speech genre has various stylistic forms with lexical-grammatical and syntactic features. The article examines the specific stylistic features of the speech genre "wish" and discusses the features of its functional change depending on the speech situation.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp28-33>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Tilak" nutqiy janrining uslubiy shakllari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

badiiy uslub,
rasmiy uslub,
publitsistik uslub,
ilmiy uslub,
diniy uslub,
so'zlashuv uslubi,
rasmiy va norasmiy so'zlar.

"Tilak" nutqiy janri til tizimida o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsion tuzilish va uslubga egaligi bilan boshqa nutqiy janrlardan farqlanib turadi va til tizimida turli uslublarda namoyon bo'ladi. Uslublararo tilak nutqiy janrida muayyan sohaga oid so'zlar va gaplar, leksik-semantik va grammatik vositalar hamda sintaktik qurilmalar ishtirok etadi. Tilak nutqiy janrining uslubiy xususiyatlariga oid konstitutiv belgilari tadqiq etilmagan. Mavjud manbalarda tilak nutqiy janrini o'rganishga bag'ishlangan lingvistik tadqiqotlarning mavjud emasligi mazkur ishning yangi tadqiqot ekanligini ko'rsatadi. Boshqa

¹ PhD, Senior Lecturer, Andijan State University. E-mail: saydur01041973@gmail.com

nutqiy janrlarda bo'lgani kabi tilak nutqiy janri matnida ham uslubiy o'ziga xoslik mavjud. Til tizimida tilak nutqiy janri leksik-grammatik, sintaktik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi uslubiy shakllarga ega.

Maqolada tilak nutqiy janrining o'ziga xos uslubiy xususiyatlari, nutqiy vaziyatga ko'ra funksional o'zgarishi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Стилистические формы речевого жанра «Пожелание»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

художественный стиль,
официально-деловой
стиль,
публицистический стиль,
научный стиль,
религиозный стиль,
разговорный стиль,
формальные и
неформальные слова.

Речевой жанр «пожелание» отличается от других жанров языковой системы наличием собственного речевого назначения, композиционной структуры и стиля, и проявляется в различных стилях. В межстилистическом жанре «пожелание» участвуют слова и предложения, относящиеся к определённой тематике, а также лексико-семантические, грамматические средства и синтаксические приёмы. Конститутивные особенности стилистики речевого жанра «пожелание» до сих пор не исследованы, а отсутствие лингвистических исследований, посвящённых изучению данного жанра, указывает на новизну представляемой работы. Как и в других речевых жанрах, текст пожелания обладает собственной стилистической спецификой. В языковой системе этот жанр существует в различных стилистических формах, характеризующихся лексико-грамматическими и синтаксическими особенностями. В статье рассматриваются специфические стилистические особенности речевого жанра «пожелание» и обсуждаются изменения его функционального назначения в зависимости от речевой ситуации.

KIRISH

Til tizimida tilak nutqiy janri leksik-grammatik, sintaktik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi uslubiy shakllarga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rasmiy-siyosiy, publitsistik, ilmiy, diniy, so'zlashuv uslubiga xoslangan tilaklarda leksik jihatdan rasmiy va norasmiy so'zlardan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiy uslubda to'liq tugallangan gap shaklida, so'zlashuv uslubida esa qisqartirilgan gaplardan foydalanish kabi leksik-grammatik xususiyatlar kuzatiladi. Masalan:

1. Badiiy uslubga xos tilaklar badiiy asarlarda nasriy yoki nazmiy usulda yaratiluvchi alohida estetik vosita va ifoda usulidir. Bunday uslubdagi tilaklar zamirida metafora, o'xshatish, sifatlash kabi uslubiy vositalarning keng qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan: *Asarni so'nggi nuqtasigacha o'qib chiqishingizda Yaratgandan Sizga sabr tilayman. Assalomu alaykum va rohmatallohu va barokatuh. (T. Malik. Shaytanat)*

2. Ilmiy uslubdagi tilak: *Assalomu alaykum! Hurmatli magistrantlar! Barchangizga sog'lik, omonlik tilagan holda, magistrlik dissertatsiyangizni muvaffaqiyatli yakunlab, bugungi himoya jarayoni oldida turganligingiz bilan tabriklayman. Hammamiz*

bilamiz, himoya faqat nimanidir gapirib chiqib ketish emas, balki Siz, magistrantlarning va ilmiy rahbarlaringizning ikki yillik samarali mehnatini ko'rsatib beradigan jarayon hisoblanadi. Ilmiy ishingizni muvaffaqiyatli yakunlab, mana shu jarayonga yetib kelganingizning o'zi sizning yutug'ingiz. Ilmiy faoliyatingizdagi mana shu ilk qadam, ilk yutug'ingiz bilan Sizlarni yana bir bor tabriklayman. Himoyadan muvaffaqiyatli o'tib olishingizga va yuqori baholanib, kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishingizda, ilmiy faoliyatning keyingi bosqichlarini ham davom ettirib, kelajakda PhD, fan doktori ilmiy darajalarini olib, kuchli olim va olimalar bo'lib yetishishingizga tilakdoshman. Hamisha sog' bo'linglar! (Magistrantlarga tabrik nutqidan). Keltirilgan ilmiy uslubga xos bo'lgan tilak matni semantik jihatdan bir necha bosqichdan iborat. Ular quyidagicha:

1) salomlashish bosqichi: *Assalomu alaykum!*

2) murojaat bosqichi: *Hurmatli magistrantlar!*

3) tilak+tabrik bosqichi: *Barchangizga sog'lik, omonlik tilagan holda, magistrlik dissertatsiyangizni muvaffaqiyatli yakunlab, bugungi himoya jarayoni oldida turganligingiz bilan tabriklayman;*

4) izohlash bosqichi: *Hammamiz bilamiz, himoya faqat nimanidir gapirib chiqib ketish emas, balki Siz, magistrantlarning va ilmiy rahbarlaringizning ikki yillik samarali mehnatini ko'rsatib beradigan jarayon hisoblanadi. Ilmiy ishingizni muvaffaqiyatli yakunlab, mana shu jarayonga yetib kelganingizning o'zi sizning yutug'ingiz;*

5) tabrik bosqichi: *Ilmiy faoliyatingizdagi mana shu ilk qadam, ilk yutug'ingiz bilan Sizlarni yana bir bor tabriklayman;*

6) tilak bosqichi: *Himoyadan muvaffaqiyatli o'tib olishingizga va yuqori baholanib, kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishingizda, ilmiy faoliyatning keyingi bosqichlarini ham davom ettirib, kelajakda PhD, fan doktori ilmiy darajalarini olib, kuchli olim va olimalar bo'lib yetishishingizga tilakdoshman;*

7) tilak bosqichi: *Hamisha sog' bo'linglar!*

Ko'rinib turganidek, ilmiy uslubga xos bo'lgan tilak mazmunli mazkur matnning semantik modelini quyidagicha ifodalash mumkin: **Salomlashish + murojaat + (tilak+tabrik) + izoh + tabrik + tilak + tilak**. Mazkur semantik model matnning semantik strukturasiga ko'ra ko'p bosqichlidir.

3. Rasmiy uslubdagi tilak. Rasmiy-siyosiy va ijtimoiy-rasmiy tilaklarga rasmiy-siyosiy va ijtimoiy-rasmiy nutqlar, tabrik, dastxat, ta'ziyanoma, tashakkurnoma, rasmiy-siyosiy va ijtimoiy-rasmiy ma'ruzaning ayrim turlaridan tortib rasmiy tashkillashtirilgan turli siyosiy, ijtimoiy tadbir, konferensiya, seminar-treninglardagi yozishmalarda, jumladan, tashakkurnoma, murojaatnoma kabilardagi tilaklar kiradi. Masalan: *Hurmatli prokuratura xodimlari! Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka, qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman! (Sh. Mirziyoyev).* Mazkur tilak matnining semantik modeli quyidagicha: **murojaat+tabrik+tilak**. "Hurmatli prokuratura xodimlari!" orqali murojaat, "Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlab" orqali tabrik, "barchangizga mustahkam sog'liq, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka, qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi ishlaringizda ulkan zafarlar tilayman" orqali esa tilak mazmuni ifodalangan.

4. Publitsistik uslubdagi tilaklar. Ushbu uslubning o'ziga xosligi shundaki, publitsistik gazeta va jurnal, publitsistik asarlar tarkibida tilak nutqiy janrining barcha uslublarga xos shakllari uchraydi. Masalan:

A. Sof publitsistik rasmiy uslubda ifodalanuvchi tilak: *Qadrdon gazetam “Ma’rifat”ga yangi 2024-yilda adadi behad oshishini, sahifalari yanada sarmazmun va rang-barang, o’qishli bo’lishini tilab qolaman.* (N. Zaylobova. “Nazokat qaytdi” yoki armonimning ushalishi)

B. Diniy publitsistik uslubda ifodalanuvchi tilak: *Yaratgan Parvardigor barchamizni poklikka intiluvchi, bilganlariga amal qiluvchi, jism-u iymoni, uy-joyi – Vatanini toza tutuvchi, bog’-u rog’lar o’stiruvchi va yer yuzini obod qiluvchilardan qilsin!*

D. Badiiy-publitsistik uslub: *Asarni so’nggi nuqtasigacha o’qib chiqishingizda Yaratgandan Sizga sabr tilayman. Assalomu alaykum va rohmatullohu va barokatuh.* (T. Malik. Shaytanat)

5. So’zlashuv uslubidagi tilak: 1. – *Men nima ham deyman... – Zalga qarab oldi-da, past vazmin tovushda qo’shib qo’ydi. – Urush tezroq bitsin. Jumla mo’min qatori Ochilim ham eson-omon kelsin! Yaxshi to’ylar qilaylik!* (O’. Hoshimov. Ikki eshik orasi) 2. *Birpasda peshonasi terlab ketdi. – Padaringga la’nat, qayoqdan yopishdi bu dard! – dedi ingrab. Belining og’rishiga men aybdordek yonboshlab yotgan joyida o’dag’alaydi* (O’. Hoshimov. Ikki eshik orasi); – ***Basharang qursin!*** Qayoqdan keldi bu so’xtasi sovuq! *Shu kuniyam xoli qo’yishmaydi.* (O’. Hoshimov. Ikki eshik orasi)

Keltirilgan misollarning har ikkisi so’zlashuv uslubiga xosligi bilan umumiylikni hosil qilsa, ijoby-salbiylik belgisiga ko’ra o’zaro farqlanadi. Solishtiraylik: – ***Urush tezroq bitsin. Jumla mo’min qatori Ochilim ham eson-omon kelsin! Yaxshi to’ylar qilaylik!*** (so’zlashuv uslubiga xos ijobiy tilak) // – ***Padaringga la’nat! – Basharang qursin!*** (so’zlashuv uslubiga xos salbiy tilak)

6. Diniy uslubdagi tilak: *Asl maqsadni ifoda etish uchun kitobga “Sunnii aqiydalar” degan nom tanlandi. Alloh Taoloning O’zi bu ishni oson va foydali qilsin. Omin! (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunnii aqiydalar).* Diniy uslub tilaklari ham ichki uslubiy xususiyatlarga ega. Masalan:

A. Sof diniy uslubdagi tilak: *Inna lillahi va inna ilayhi roji’un (ta’ziya tilagi);*

B. Diniy ilmiy uslubdagi tilak: *Ushbu risolani yozishda beminnat yordam bergan ustozlarimizga Alloh Taolodan ajr-u mukofotlar tilaymiz. Alloh Taolo hammamizning oqibatimizni hayrli qilsin. Omin! (So’zboshidan);*

D. Norasmiy diniy uslubdagi tilak: *Sher akani joylari jannatda bo’lsin!* kabi diniy uslubiy shakllarga tasnif qilish mumkin.

E. Publitsistik uslubdagi diniy tilak: *Tahririyat jamoasiga yangi yilda ham Ollohdan kuch-quvvat tilayman.*

F. Badiiy-publitsistik uslubdagi diniy tilak: *Ustoz yosh kursantni bag’riga bosib duo qilgandi. Mana shunga ham roppa-rosa 14 yil bo’lyapti, lekin Abdulla akaning ovozi hamon qulog’im ostida yangrab turgandek. Ustozning oxiratlari obod bo’lsin...* (T. Saydaliyev. Ustoz otangdan ulug’)

G. So’zlashuv uslubida ifodalanuvchi diniy tilaklar: – *Qani, omin, tinchlik-xotirjamlik, sog’lik-salomatlik bo’lsin, omin, Ollohu akbar! – deb yuziga fотиha tortdi Qo’zivoy aka. (Sh. Boshbekov. Charxpalak)*

Ko’rinadiki, rasmiy, ilmiy, diniy, publitsistik, badiiy-publitsistik, so’zlashuv uslubiga oid tilak shakllari til tizimida funksional nutq uslublarining xilma-xilligini ko’rsatadi. Bu esa, nutqiy janrlar nazariyasida funksional uslub masalasining murakkabligini dalillash bilan birga, ushbu masala yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib borishga chorlaydi.

TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIYASI

O'zbek tilida "tilak" nutqiy janrining mohiyatini yoritishda tilshunoslikning tavsiflash, kontrastiv va component tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotchi F.Xasanova ham nutqiy janrlarda funksional uslub masalasi munozarali ekanligini alohida ta'kidlar ekan, nutqiy janrlarda ikki uslubni, ya'ni birlamchi va ikkilamchi nutq uslublarini farqlashni taklif qilgan. Olimaning fikricha, birlamchi nutq uslublari tarkibida ichki ikkilamchi nutq uslublari mavjud. Masalan, publitsistik uslubda rasmiy, so'zlashuv, badiiy kabi uslublarning faol qo'llanilishi, badiiy uslubda rasmiy, so'zlashuv, ilmiy uslublarning ishlatilishi, shu bilan birga, diniy uslubda ifodalangan nutqiy janrlarda sof diniy rasmiy, diniy so'zlashuv kabi uslublar mavjudligi, ilmiy uslubda ifodalangan nutqiy janrlarda esa rasmiy ilmiy va ilmiy so'zlashuv uslublari kuzatilishi alohida ahamiyatga ega.

Bizningcha ham nutqiy janrlarda uslub masalasi nihoyatda murakkab masaladir. Ayniqsa, tilak nutqiy janri uslubiyati masalasi tadqiqida tilakning qaysi sohaga taaluqliligi, qaysi vaziyatda, kim tomonidan aytilayotganini inobatga olish muhimdir. Masalan, internet sohasidagi kommentariya nutqiy janrida tilakning rasmiy, norasmiy ko'rinishlari faolligi bois tilakning rasmiy, so'zlashuv, diniy uslubiy shakllari qo'llaniladi. Bu esa til tizimida tilak nutqiy janrining internet sohasiga oid turlarida uslubiy o'ziga xoslik mavjudligini ko'rsatadi. Internet sohasi lingvistikasiga ko'ra adresantlar rasmiy, norasmiy, diniy tilaklarning chegaralanmagan turlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

XULOSA

Bizningcha, bu kabi masalalar tadqiqi tilak nutqiy janri uslubiyatini sotsiolingvistik tadqiqotlar bilan bog'laydi. Zero, tilak nutqiy janri uslubiyati masalasida sotsiolingvistik yondashuv tilak shakllarining adresantlar va adresatlar tomonidan to'g'ri qo'llanilish vaziyatini aniqlashtirib beradi.

Diniy sohadagi tilaklar xilma-xilligi ham ichki diniy uslubning mavjudligi, adresantlar va adresatlar mavqeyi kabilarni hisobga olib qo'llanilishi bilan izohlanadi. Masalan, sof diniy shakldagi tilaklar diniy ulamolar tomonidan, diniy tushunchalar asosida shakllanuvchi tilaklar esa ijtimoiy-maishiy hayotda norasmiy kishilar tomonidan qo'llaniladi. Demak, tilak nutqiy janri uslubiyati masalasida birlamchi va ikkilamchi uslublarning o'ziga xosligini aniqlab olish zaruriyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Прокуратура ходимларига Президент табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2024. – №5 (8628).
2. Ўзбекистон фахрийларининг ижтимоий фаолиятини кўллаб-қувватлаш "Нуроний" жамғармаси, Ўзбекистон мусулмонлари иродаси, Конфессиялар ишлари бўйича кенгаш ҳамда Миллий маданий марказлар Республика жамоатчилиги кенгашининг халкимизга мурожаати // Халқ сўзи. – Тошкент, 2024. – №69 (8692). – Б. 2.
3. Ҳазрат Баҳовиддин Нақшбанд. Тарихий ва маърифий рисола. – Тошкент: Сано-стандарт, 2013. – 112 б.
4. Шерали Жўраев жанозасига минглаб оломон тўпланди. Электрон ресурс // https://youtu.be/MG12_nb_xLk?si. (Мурожаат санаси: 12.02.2024)
5. Худойназарова У. "Маърифат" фақат ижодкорликка чорлайди / "Маърифат" халқ зиёлилари газетаси. – Тошкент, 2024. – №1 (9482). – Б. 8.

6. Сайдалиев Т. Устоз отангдан улуғ / “Маърифат” халқ зиёлилари газетаси. – Тошкент, 2024. – №1 (9482). – Б. 10.
7. Кибрик А.А. Модус, жанр и другие параметры классификации дискурсов // Вопросы языкознания. – М., 2009. – № 2. – С. 13.
8. Хасанова Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019. – 155 б.
9. Pulatjonovna, S. D. (2024). Lingvosemiotic Content of Linguistic Features of The Speech Genre “Wish”. *Global Scientific Review*, 26, 96-99.
10. Sayfutdinova, D. (2024). IJOBIY TILAKLARNING FUNKSIONAL SEMANTIK TABIATIGA OID AYRIM MULOHAZALAR. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(3), 155-158.
11. Сайфутдинова, Д. (2024). Ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlari. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 504-508.
12. Sayfutdinova, D. (2024). LINGUISTIC FEATURES OF THE SPEECH GENRE “WISH” IN THE OFFICIAL POLITICAL STYLE. *Builders Of The Future*, 4(04), 160-164.
13. Сайфутдинова, Д. П. (2024). TILAK NUTQIY JANRIDA ADRESAT NUTQINING VERBAL VA NOVERBAL VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI. ББК 74+ 81я431 П78, 43.
14. Pulatjonovna, S. D. (2024). Positive and Negative Wishes as a Social Ritual. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(7), 159-162. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/3231>
15. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. *Journal of Positive School Psychology*, 6(8), 1765-1771.
16. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. *Academicia Globe*, 2(6), 347-354.
17. Nurmanova, D. A. (2019). ТЕКСТ, КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ ФОРМА РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ЧАСТИ ОТ ЦЕЛОГО". *Theoretical & Applied Science*, (4), 582-585.
18. Nurmanova, D. A. (2023). Neutralization Of Oppositions of To the Paradigm of Cases In The Uzbek Language. *Global Scientific Review*, 21, 83-89.
19. Nabieva, D. A., & Nurmanova, D. A. (2022). Neutralization of phonological oppositions in uzbeki.
20. Nurmanova, D. A. (2019). Text as a universal form of representation of" part from the whole». *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (72), 582-585.